ONLINE JOURNAL
E-ISSN:3060-5490

INSTITUTE OF UZBEK NATIONAL
MUSICAL ART NAMED AFTER YUNUS RAJABI

Milliy Madaniyat Jurnali - Журнал Национальной Культуры

Journal of national CULTURE

Received: 26.06.2026 · Accepted: 19.09.2026 · Published: 30.09.2026
DOI: https://doi.org/10.64681/henheg40

ilmiy uslubiy jurnali – научно-методический журнал – research and methodological journal

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti
MILLIY MADANIYAT JURNALI, 2 (3), 2026
www.jnculture.uz

Musiqa ta’limida milliy va ma’naviy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari

(Pedagogical Opportunities of Using National and Spiritual Values in Music Education)

Dilyoraxon Kavilova

Acting Associate Professor of the Department of Vocal Studies,
PhD in Pedagogical Sciences
Uzbekistan State Institute of Arts and Culture 117036, Mirzo Ulugbek, Yalangoch Street, 127A Uzbekistan/Tashkent
E-mail:dilyoraxon1994@mail.ru

Annotatsiya

Mazkur maqolada musiqa ta’limida milliy va ma’naviy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Unda Sharq mutafakkirlari, xususan, Abu Nasr Forobiy va Abu Ali ibn Sinoning musiqa san’ati, uning inson ruhiyati, axloqiy tarbiyasi va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishdagi o‘rni haqidagi qarashlari tahlil qilingan. Shuningdek, o‘zbek xalqining boy musiqiy merosi, an’anaviy xalq qo‘shiqlari, folklor, ustoz-shogird an’analari hamda milliy qadriyatlarning talabalarning ma’naviy-estetik dunyoqarashini shakllantirishdagi ahamiyatiga e’tibor qaratilgan. Musiqa ta’limi tizimida boy milliy merosimiz va tarixiy an’analarimiz imkoniyatlaridan unumli foydalanish yosh avlodni har tomonlama barkamol va ma’nan boy shaxs sifatida kamol toptirishda g‘oyatda katta o‘rin tutadi. Bu jarayon shunchaki o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish bilan cheklanib qolmay, bo‘lajak mutaxassislarning musiqiy-ijodiy qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirish hamda ularda yuksak estetik did, badiiy va musiqiy idrokni shakllantirish uchun mustahkam pedagogik poydevor yaratadi. O‘zbek xalq musiqa san’atining o‘ziga xos xususiyatlari va ko‘p asrlik an’analari talabalarning amaliy hamda nazariy bilimlarini boyitib, ularning ijodiy fikrlash doirasini kengaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: musiqa ta’limi, milliy va ma’naviy qadriyatlar, musiqiy meros, Sharq mutafakkirlari, ijodiy qobiliyat, estetik va axloqiy tarbiya, xalq musiqasi, ustoz-shogird an’anasi.

Abstract

This article highlights the pedagogical possibilities of using national and spiritual values in music education. It analyzes the views of Eastern thinkers, particularly Abu Nasr al-Farabi and Abu Ali ibn Sina, on musical art, its role in the spiritual development of individuals, moral education, and the development of

creative abilities. Particular attention is also paid to the rich musical heritage of the Uzbek people, traditional folk songs, folklore, the ustoz-shogird (master-apprentice) traditions, and the importance of national values in shaping students' spiritual and aesthetic worldview. Effective utilization of our rich national heritage and historical traditions within the music education system plays a pivotal role in nurturing the younger generation into comprehensive and spiritually enriched individuals. This process goes beyond merely organizing educational sessions; it establishes a solid pedagogical foundation for the holistic development of future specialists' musical and creative abilities, as well as the cultivation of high aesthetic taste and artistic and musical perception. The unique characteristics and centuries-old traditions of Uzbek folk musical art serve to enrich students' practical and theoretical knowledge, fostering the expansion of their creative thinking skills.

Keywords: music education, national and spiritual values, musical heritage, Eastern thinkers, creative abilities, aesthetic and moral education, folk music, ustoz-shogird tradition.

Аннотация

В данной статье освещаются педагогические возможности использования национальных и духовных ценностей в музыкальном образовании. В ней анализируются взгляды восточных мыслителей, в частности Абу Насра аль-Фараби и Абу Али ибн Сины, на музыкальное искусство, его роль в духовном мире человека, нравственном воспитании и развитии творческих способностей. Также особое внимание уделяется богатому музыкальному наследию узбекского народа, традиционным народным песням, фольклору, традициям «устоз-шогирд», а также значению национальных ценностей в формировании духовно-эстетического мировоззрения студентов. Эффективное использование возможностей нашего богатого национального наследия и исторических традиций в системе музыкального образования играет чрезвычайно важную роль в формировании молодого поколения как всесторонне развитых и духовно богатых личностей. Этот процесс не ограничивается лишь организацией учебных занятий, а создает прочный педагогический фундамент для всестороннего развития музыкально-творческих способностей будущих специалистов, а также для формирования у них высокого эстетического вкуса, художественного и музыкального восприятия. Специфические особенности и многовековые традиции узбекского народного музыкального искусства служат обогащению практических и теоретических знаний студентов, способствуя расширению кругозора их творческого мышления.

Ключевые слова: музыкальное образование, национальные и духовные ценности, музыкальное наследие, восточные мыслители, творческая

способность, эстетическое и нравственное воспитание, народная музыка, традиция «устоз-шогирд».

O‘zbek musiqa san’ati va madaniyati bilan yaqindan tanishish va o‘rganish asosida ijodkor o‘zi uchun yangi ijodiy bilimlarni ochishga muvaffaq bo‘ladi. Bu davrda xalqning ijodiy rivojlanishi, san’at va madaniyat targ‘iboti, iste’dodlarni namoyon etish hamda ma’rifatparvarlik g‘oyalari birinchi o‘ringa chiqdi. Insonlarning ma’naviy ehtiyojlarini qondirishda an’anaviy xalq qo‘shiqlari, musiqa va folklor qo‘shiqlarining ahamiyati nihoyatda katta.

Asrlar osha bizgacha yetib kelgan nodir durdonalar millatimiz vakillarining ongiga, turmush tarziga, qoniga qay darajada singdirilayotganligi, uni asrab-avaylab saqlab qolinayotganligi va yangicha tafakkur bilan idrok qilgan holda uni boyitib borishga qay darajada kirishilayotgani bugungi kunning eng muhim va dolzarb muammosidir.

Yurtimizning turli vohalarida xalq orasida keng tarqalgan musiqani ta’lim tizimiga olib kirish, milliy qadriyatlarimizni va merosimizni yosh avlodga ustoz-shogird an’analari asosida o‘rgatish, shu tariqa ularning kasbiy mahoratlarini shakllantirish va rivojlantirish bizning asosiy vazifalaramizdandir.

Qadimdan Sharq va G‘arb mutafakkir olimlari, faylasuflari ham bir necha musiqa cholg‘ularida chalish va kuylash mahoratini egallashga intilganlar. Chunki, yurakni musiqa bilan hamohang urib turishi insonning fikrlarini jamlab, bir tizimga solishga, me’dani sog‘lomlashtirishga, muammolar yechimini topishga yordam bergan. Demak, musiqa yordamida insonni ham ma’naviy, ham fiziologik tomondan tarbiyalash va rivojlantirish mumkin.

Talaba ongiga alloma va mutafakkirlarning musiqiy qarashlarini singdirishda ideallar juda muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagog talabani kelajakda kimning o‘rnida ko‘rishni xohlasa, uni talaba ko‘zida ideal darajasiga yetqaza olishi kerak bo‘ladi. Masalan, talabaning ideali uning otasi, u otasiday uchuvchi bo‘lmoqchi, u

yaqin orada bu maqsadga erishish yo‘lini izlaydi, unga intiladi, o‘zida otasida bor xislatlarni takrorlashga harakat qiladi.

Arxeologik qazilmalar va qo‘lyozma manbaalardan ma’lum bo‘lishicha o‘sha davrda musiqa va musiqashunoslik keng rivoj topgan va u matematika ilmining bir qismi hisoblangan. Mazkur davrning buyuk olimi Abu Nasr Farobiy musiqaning nazariy asoslari, kuylar, asboblar, musiqa madaniyatining mezonlari, atamalari tahliliga bag‘ishlangan “Katta musiqa” kitobining muallifidir. O‘rta asr musulmon sharqi musiqa nazariyasiga bag‘ishlangan ushbu kitob 2 qism, 3 kitobdan iborat bo‘lgan. Farobiy “Katta musiqa”dan tashqari “Musiqa haqida so‘z”, “Ritmlar tartibi haqida kitob”, “Ritmga qo‘shimcha qilinadigan siljishlar haqida” asarlari talabalarda musiqiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda muhim axamiyatga ega.

Farobiy “Musiqa haqida katta kitob” asari bilan O‘rta asrning yirik musiqashunosi sifatida ham mashhur bo‘ldi. U musiqa ilmini nazariy, amaliy jihatdan yoritib, musiqani inson axloqini tarbiyalovchi sihat-salomatligini mustahkamlovchi vosita deb qaragan. Uning musiqa sohasida qoldirgan merosi talabalarda musiqiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga egadir [1, 14-b].

Sharq mutafakkiri Abu ali ibn Sino musiqaning ruh va tanaga shifobaxsh ta’siri to‘g‘risida aytib, musiqaning psixologik va fiziologik xususiyatlarini o‘rgangan. Hozirgi kunda dunyodagi ko‘pchilik musiqashunos-olimlar, tibbiyot mutaxassislari va psixologlar musiqaning juda kuchli davolovchi xususiyati borligi va shifobahsh ta’sirga ega ekanligini isbot qildilar [2, 16-b].

Ibn Sino “Risolaye Hay ibn Yaqzon” (“Yaqzon o‘g‘li Hay, ya’ni Tirik o‘g‘li Hayot haqida risola”) nomli risolasida insonning ijodiy imkoniyatlari quyidagicha izohlanadi: “Inson o‘zining bilish va ijodiy qobiliyatini to‘la ishga solib, atrofidagi his-tuyg‘u uyg‘otuvchi dunyoni mustaqil tarzda tajriba vositasida bila oladi” [3, 66-b].

Bugungi kunda musiqaning yangi sohasi funksional musiqa orqali musiqaning kishi psixikasi va fiziologiyasiga ta’sirini o‘rganilishi buning boisidir. “Musiqa ta’limi” yo‘nalishi fanlari o‘zining aralash dars tipi (tuzilmasiga ega), ifoda vositasi (tili) va aktiv psixologik ta’siri bilan farq qiladi [4, 45-b]. Demak, musiqa ta’limi talabalarning shaxsiyati va dunyoqarashining shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Ota-bobolarimiz, xalqimiz asrlar davomida biz ajdodlarga boy madaniy me’ros qoldirgan [5, 89-b]. Asrlar davomida respublikamizning turli vohalarida turmush tarzi, yashash sharoiti, iqlimidan kelib chiqib, rang-barang qo‘shiqlar yaratilgan, cholg‘u musiqalari vujudga kelgan, cholg‘u asboblari yasalgan. Ularni o‘rganish, hayotga tadbiq etish, kelajak avlodga yetkazish bizning oldimizda qo‘yilgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Insonning ma’naviy kamolotga erishuvida fan, adabiyot va boshqa muhim tarmoqlar kabi san’atning, xususan musiqaning faqat o‘zigagina xos bo‘lgan alohida o‘rni bor. O‘zbek xalqi qadimdan o‘zining boy musiqiy merosi, ma’naviy-musiqiy qadriyatlariga ega bo‘lib kelgan [6, 5-b]. Bu bisot turli yo‘nalish va janrlarda allomalarimiz yaratgan musiqiy risolalar, qo‘lyozmalar, yaratilgan cholg‘u asboblari, qo‘shiq, kuy, baxshichilik, ustoz-shogirdlik an’analari, bayramlar, sayllar, festivallar tarzida o‘z ifodasini topgan.

Musiqa kishi tasavvurida obrazlar yaratishi orqali inson ruhiyatiga singib boradi. Yaxshi, yoqimli musiqa inson qalbida yaxshi kayfiyat uyg‘otadi va u kishi ruhiga ko‘tarinkilik olib kiradi. Yaxshi musiqadan ruhlangan kishi o‘z kuchiga ishonch hosil qiladi va ozuqa oladi [7, 90-b]. Hayotda uchraydigan ma’lum muammolar oldida o‘zini bardam his qiladi va turli holatlarda dadillik ko‘rsatishga tayyor bo‘ladi.

Sozlanmagan musiqa asboblarida chalish, sozga tushmay qo‘shiq kuylash, o‘ta bachkana va yengil-yelpi mazmundagi asarlarni ijro etish tinglovchining kayfiyatini buzadi. U bunday musiqa ta’sirida asabiylasha boshlaydi va bunday

musiqaga qarshi oshkora jang e'lon qilib, uni yo'qotish harakatiga tushadi. Musiqani bunday buzib chalishni to'xtatish imkoni bo'lmagan hollarda tinglovchida asabiylashish holatlari yuz beradi. Musiqa asarlarida ko'tarinkilik kayfiyati faqat shodlik, xursandchilikni ifodalabgina qolmay, balki tinglovchilarda qaxramonlik hislatlarining paydo bo'lishiga ham olib keladi.

Ayni paytda musiqada fojea holatlari ham ifodalanadi. Ishq-muhabbat yo'lida o'zini qurbon qilishga tayyor bo'lish, ushalmagan orzu-armonlarning azobini tortish kabi tragedik holatlar ham musiqaning turli janrlaridan o'z o'rnini olgan. Kishini kulgusini keltiradigan komik obrazlar, hajviyalar ham musiqa asarlarida o'z ifodasini topgan [8, 12 b].

Musiqa ta'limi inson badiiy faoliyatining eng keng ommaviy shaklidir. U insoniyatning deyarli barcha ijtimoiy qatlamini jadal badiiy faoliyatga va umumlashuvga chorlaydi. Negaki, musiqa yosh avlodni xalq qo'shiqchiligi merosiga, milliy, Yevropa klassik musiqa durdonalariga qiziqish tug'dirib birlashtiradi hamda ahillik va birdamlikka chaqirib, ulardagi ba'zi bir fiziologik, psixologik (duduqlanish, fikrni bayon qila olmaslik, xotiraning sustligi, tortinchoqlik, uyatchanlik, injiqlik, parishonxotirlik kabi) nuqsonlarni bartaraf etishda yordam beradi. Musiqaning aynan mana shu xususiyatlari talabalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi [9, 9-b].

Xalq musiqasiga boy bo'lgan bayramlar, sayllar va turli xil tomoshalar inson ma'naviyati shakllanishida va taraqqiyotida asosiy manbaa hisoblanadi. Har bir bayram, marosimning tarbiyaviy ta'sir kuchi shu an'ananing mazmunini ochishga xizmat qiluvchi urf-odatlar, rasm-rusumlar bilan mustahkamlanadi.

Ma'naviy qadriyatlarning asosiy manbaalar ko'lami taxminan quyidagi jabhalarni o'z ichiga oladi:

- inson ongi, aql-zakovati mahsuli sifatida yaratilgan narsalar (fan, adabiyot, san'at);

- turmush tarzi, hayotiy zaruratlar asosida shakllangan qadriyatlar (urf-odatlar, an’analar, udumlar, bayramlar);
- tasavvur, ruhiy ehtiyojlar zamiridan kelib chiqadigan qadriyatlar, falsafiy qarashlar, e’tiqod (Qur’on, hadis, diniy tushuncha va mulohazalar).

Bu qadriyatlar inson ma’naviyatining barcha muhim tarmoqlari va barcha qirralarini o‘zida namoyon qiladi va ayni paytda bu tamoyillar bir biridan ajratib bo‘lmas darajada uzviy bog‘lanib ketadi, hamda bir butunlikni tashkil qiladi, yani to‘laqonli insoniy manaviyatni yuzaga keltiradi. Boshqa xalqlar singari, o‘zbek xalqi ham-o‘zining boy tarixi, betakror qadriyatlar bisotiga, yani o‘z manaviyatiga ega.

Musiqa vositasida ifodalanadigan his-tuyg‘ularni so‘z bilan ifodalash juda qiyin. “Qachonki so‘z ojizlik qilsa, musiqa yordamga keladi”, deb bejizga aytishmagan [10, 4-b].

Musiqa talabalarga faol emotsional ta’sir ko‘rsatadi, quvontiradi, ijobiy kechinmalar uyg‘otadi. Yaxshi, mazmunli, qiziqarli musiqadan talabalar xush kayfiyatga ega bo‘ladilar. Talabalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish ta’lim jarayonining negizi bo‘lib, talabalarning qiziqishlarini inobatga olgan holda, uning dunyoqarashini va e’tiqodini shakllantirishga qaratilgan pedagogik muammolardan biridir. E’tiqodning predmeti turlicha bo‘lishi mumkin: Vatanga e’tiqod, dinga, fanga, kasbga, oilaga, axloq me’yorlariga, go‘zallikka va shunga o‘xshash. Agarki, insonda biror narsaga e’tiqod shakllangan bo‘lsa, u yaxshi, odamlarga, jamiyatga nafi tegadigan bo‘lib yetishadi. Masalan, Alisher Navoiyning butun hayoti xalqqa va millatga fidoiylikning namunasi sifatida turkiy xalqlar adabiyotiga asos solishga bag‘ishlanganligi, Muhammad Al-Xorazmiy, Imom Ismoil al-Buxoriy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Farobiy, Mirzo Ulug‘bek kabi buyuk allomalarimizning ilm va ijod yo‘lidagi qat’iyatlari, erishgan yutuqlari e’tiqodlilikning yorqin namunasidir.

Talabalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda allomalarimizning fikr-mulohazalari va manbaalari juda muhim ahamiyatga ega. Har bir o‘rgatilayotgan kuy, qo‘shiq, asar yashab turgan zaminimizni madh etishi, insonda yaxshi xislatlarni uyg‘otishi, ezgulikka chorlashi va qolaversa, do‘stlik, mardlikka undashi lozim. Ammo, hozirgi kunda musiqasi yoqimli, ma’no-mazmuni sayoz, yoshlarga xos bo‘lmagan, na zarar, na foyda keltirmaydigan, ezgulikka undamaydigan, vaqtincha huzur bag‘ishlaydigan “ermak qo‘shiqlar” ommalashib, insonlar ongiga salbiy ta’sir yetkazib kelmoqda. Kuy-qo‘shiq kishilarning inson bo‘lib ijtimoiy mavjudot sifatida shakllanishi va yashashi uchun asosiy ruhiy, ma’naviy omil hisoblanadi.

Demak, bu qadriyatlarni yoshlarimiz ongiga musiqa orqali singdirishi kerak bo‘lgan pedagoglarimiz oldida muhim vazifa turibdi. Ya’ni, jamiyat tayanchi bo‘lgan o‘qituvchilar o‘z kasbiga sadoqat bilan sidqidildan yondashsagina, u zamon talabiga javob bera oladigan shaxs va yoshlarni ma’naviy kamolotga yetaklay oluvchi pedagog maqomiga sazovor bo‘lishi mumkin.

Yuqorida talqin qilinganlardan kelib chiqqan holda shunday xulosaga kelish mumkinki, musiqa asarlarida estetik hislar axloqiy hislar bilan chambarchas bog‘lanib ketadi va ularning biri ikkinchisini to‘ldirib boruvchi muhim komponentlar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abu Nasr Farobiy. “Musiqa haqida katta kitob”. – Toshkent: Musiqa, 2010. – B.318.
2. Abu ali ibn Sino. Tib qonunlari. 1-5-kitoblar. – Toshkent: Sharq, 2020. – 5- jild (6 kitob).
3. Abu ali ibn Sino. Izbrannoe v 2-x tomax. Vostochnaya filosofiya (al-Hikma al-mashriqiya), Rukovodstvo po filosofii (Kitab al-hidaya), Traktat ob opredeleniyax (ar-Risala fi-l-hudud), Traktat ob etike (ar-Risala fi-l-axlaq). Dushanbe-Ashgabat: Kulturniy sentr Posolstva IRI v Turkmenistane, 2003. –185 s.
4. Kolkanatov, A. (2025). The Need to Improve the Performance of Cultural Centers. Turkology, (2).
5. Qolqanotov, A. (2026). National songs as a spiritual need. American journal of social science, 4(2), 86-91.
6. Nazarbaevna, Q. A., & Serjanovich, K. S. (2024). The Importance of Scenario in Cultural Events. European Journal of Innovation in Nonformal Education, 4(2), 259-262.
7. Alfiya, Q. (2023). Milliy Musiqa San’ati Va Yoshlar Tarbiyasi. Journal of Creativity in Art and Design, 1, 16-20.

8. Eldor o‘g‘li, J. Z., & Sayfulla o‘g‘li, S. A. (2025). The influence of music on the human mind. Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi, (1), 181-185.
9. Jummanazarov, Z. E. (2025). Musiqaning yoshlar aqliy va jismoniy rivojlanishiga ta’siri. Inter education & global study, 3(3), 563-573.
10. Rauf Qodirov. “Musiqa pedagogikasi”. Toshkent: Musiqa, 2009. – B.47.

References

1. Farobiy, Abu Nasr. *Musiqa haqida katta kitob* [The Great Book of Music]. Tashkent: Musiqa, 2010. 318 p.
2. Ibn Sino, Abu Ali. *Tib qonunlari* [The Canon of Medicine]. Books 1–5. Tashkent: Sharq, 2020. Vol. 5 (Book 6).
3. Ibn Sino, Abu Ali. *Izbrannoye v 2-kh tomakh. Vostochnaya filosofiya (al-Hikma al-mashriqiya), Rukovodstvo po filosofii (Kitab al-hidaya), Traktat ob opredeleniyakh (ar-Risala fi-l-hudud), Traktat ob etike (ar-Risala fi-l-akhlaq)* [Selected Works in 2 Volumes: Eastern Philosophy (al-Hikma al-Mashriqiya), Guide to Philosophy (Kitab al-Hidaya), Treatise on Definitions (ar-Risala fi-l-Hudud), Treatise on Ethics (ar-Risala fi-l-Akhlaq)]. Dushanbe–Ashgabat: Kul’turnyy tsentr Posol’stva IRI v Turkmenistane, 2003. 185 p. (in Russian)
4. Kolkanatov, A. “The Need to Improve the Performance of Cultural Centers.” *Turkology*, no. 2 (2025).
5. Qolqanotov, A. “National Songs as a Spiritual Need.” *American Journal of Social Science* 4, no. 2 (2026): 86–91.
6. Nazarbaevna, Q. A., and K. S. Serjanovich. “The Importance of Scenario in Cultural Events.” *European Journal of Innovation in Nonformal Education* 4, no. 2 (2024): 259–262.
7. Alfiya, Q. “Milliy musiqa san’ati va yoshlar tarbiyasi” [National Musical Art and Youth Education]. *Journal of Creativity in Art and Design* 1 (2023): 16–20. (in Uzbek)
8. Eldor o‘g‘li, J. Z., and S. A. Sayfulla o‘g‘li. “The Influence of Music on the Human Mind.” *Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi* [Platform of Local and International Conferences], no. 1 (2025): 181–185.
9. Jummanazarov, Z. E. “Musiqaning yoshlar aqliy va jismoniy rivojlanishiga ta’siri” [The Influence of Music on the Mental and Physical Development of Youth]. *Inter Education & Global Study* 3, no. 3 (2025): 563–573. (in Uzbek)
10. Qodirov, Rauf. *Musiqa pedagogikasi* [Music Pedagogy]. Tashkent: Musiqa, 2009. 47 p.